

ENERGETIK-TALABALARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA TA'LIM MAZMUNI VA LEKSIK MINIMUMNI ANIQLASH

Xilola Botiraliyeva BAKIROVA

Katta o'qituvchi

Ingliz tili amaliy tarjima kafedrası

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ОПРЕДЕЛЕНИЕ СОДЕРЖАНИЯ ОБУЧЕНИЯ И ЛЕКСИЧЕСКОГО МИНИМУМА ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-ЭНЕРГЕТИКОВ

Хилола Ботиралиевна БАКИРОВА

Старший преподаватель

Кафедра практического перевода английского языка

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

DETERMINATION OF LEARNING CONTENT AND LEXICAL MINIMUM IN TEACHING ENGLISH TO ENERGY STUDENTS

Xilola Botiraliyeva BAKIROVA

Senior teacher

Department of Practical Translation of English

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan ms.khilola@bk.ru

UDC (УЎК, УДК): 303.4.02

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Bakirova X. B. Energetik-talabalarga ingliz tilini o'qitishda ta'lim mazmuni va leksik minimumni aniqlash// O'zbekistonda xorijiy tillar — 2022. — №.3 (44). — B. 86-100.

<https://doi.org/10.36078/1658740403>

Received: March 12, 2022

Accepted: June 17, 2022

Published: June 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc.

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqola nofilologik oliy o'quv yurtlari bo'lajak mutaxassislarida leksik kompetensiyani shakllantirish metodikasiga yo'naltirilgan bo'lib, leksik kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni va mutaxassislik leksik minimumini aniqlash masalalari tahlil qilingan. Chet tilini o'qitish mazmuni va uning tarkibi olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan bo'lsa-da, biroq ularning qaysi birlari aynan leksik kompetensiyani shakllantirishda zarur va kerakli ekanligi hali tadqiq etilmagan. Tadqiqot ishida mavjud o'qitish mazmuni tahlil qilib, yangi qo'shimchalar kiritish orqali maxsus tarkibni belgilash maqsad qilindi. Shuningdek, o'zbek va chet el tadqiqotchilari olimlarining ta'lim mazmuni tarkibi bo'yicha bergan takliflari o'rganilib, umumlashtirildi va tahlil qilindi. Ulardan ba'zilarini maqolada taqdim etildi. Texnika oliy o'quv yurtlari chet tilini o'qitish ta'limi maqsadidan kelib chiqqan holda, sohaviy leksik minimum tanlashning maxsus tamoyillarini tahlil qilib, quyidagi tamoyillar bo'yicha energetika mutaxassisligi uchun leksik minimum yig'ishga muvaffaq bo'lindi: o'qitishning maqsad va vazifalariga muvofiqlik tamoyili, qo'llanish darajasiga ko'ra tamoyili, qo'shimchalar orqali so'z yasay olishlik tamoyili, bog'lana olishlik xususiyatiga ko'ra tamoyili, mavzu bo'yicha tamoyili, semantik namunalilik tamoyili.

Kalit so'zlar: leksik kompetensiya; ta'lim mazmuni; mutaxassislik leksik minimumi; tanlash tamoyili; chet til; o'qitish tizimi; o'qitish texnikasi; kommunikativ kompetensiya.

Аннотация. В статье рассматривается методология формирования лексической компетентности у будущих специалистов нефилологических вузов, анализируется содержание образования и определение лексического минимума специальности, направленного на развитие лексической компетентности. Хотя содержание обучения иностранному языку и его содержание были глубоко изучены учеными, еще не исследовано, какие из них необходимы и желательны для формирования лексической компетенции. В нашей исследовательской работе мы стремились идентифицировать конкретный контент, анализируя существующий учебный контент и вводя новые дополнения. Также были изучены, обобщены и проанализированы предложения отечественных и зарубежных исследователей по содержанию образования. Некоторые из них представлены в статье. Нам удалось собрать лексический минимум для энергетической специализации по определенным принципам.

Ключевые слова: лексическая компетентность; содержание обучения; лексический минимум специализации; принцип отбора; иностранный язык; система обучения; методика обучения; коммуникативная компетентность.

Abstract. The article deals with the methodology for the formation of lexical competence of future specialists at non-philological universities. It analyzes the content of education and the definition of the lexical minimum of a speciality aimed at developing lexical competence. The following study is aimed to identify specific content by analyzing existing educational content and introducing new additions. The proposals of domestic and foreign researchers on the content of education were studied, summarized and analyzed. The lexical minimum for energy degree specialization was collected according to the following principles: the principle of compliance with the goals and objectives of learning, the principle of application, the ability to form words through affixes, analyzing the specific principles of choosing the branch principle of the lexical minimum, the principle of relativity, the principle of the subject, the principle of semantic regularity.

Keywords: lexical competence; training content; lexical minimum of specialization; selection principle; foreign language; teaching system; teaching methodology; communicative competence.

Kirish. Ta'lim mazmuni butun chet tillarni o'qitish tizimining Markaziy komponenti bo'lib, uning maqsadi va tamoyillarini, shuningdek, o'qituvchilar va talabalar faoliyatini, har bir davrga mos o'qitish texnikasi va texnologiyalarini belgilab beradi.

Chet til faoliyatga asoslangan o'quv predmeti sifatida kommunikativ kompetensiyaning besh tarkibiy qismini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi:

1) lingvistik (tilning asosiy birliklari: tovushlar va harflardan to'liq matngacha va ularni boshqarish qoidalarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi);

2) nutq (chet tildagi nutq faoliyatining asosiy turlari: gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozishni o'zlashtirish);

3) ijtimoiy-madaniy (umumiy fondagi, mintaqaviy va umummadaniy bilim, ko'nikma va malakalarni o'rganish);

4) kompensatorlik (cheklangan miqdordagi til vositalari bilan ham faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalarini egallash, ya'ni muloqot jarayonida grammatik qiyinchiliklar mavjud bo'lganda, perifraza orqali

yoki leksik vositalarning yetishmasligi natijasida leksik almashtirishlardan foydalanish qobiliyati va boshqalar);

5) ta'limiy va bilish (umumiy ta'lim va maxsus ta'lim qobiliyatlariga ega bo'lish, masalan, tarjima qilish, kontekst asosida taxmin qilish va h.k.).

Bundan tashqari, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda ta'lim mazmunining yana bir tarkibiy qismini hisobga olish muhim, bu — o'quv mazmunining tanlangan tarkibiy qismlarining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan his-tuyg'ular va hissiyotlar. Ular qulay o'quv va ta'lim muhitini yaratishga, o'quvchilarga motivatsiya berishga va milliy qadriyat yo'nalishlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi (12).

Asosiy qism. Ta'lim mazmuni masalasi bo'yicha ko'plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan hamda ta'lim mazmuni tarkibi bo'yicha turli takliflar berishgan. Ulardan ba'zilar tahlilga tortiladi.

R.K. Minyar-Beloruhev (13) ta'lim mazmunini ikki katta guruhga ajratgan. Ular ham o'z tarkibiga ko'ra tasniflanadi:

1. Bilim:

- til material;
- chet tilda nutq faoliyati turlari va ulardan foydalanish haqida tushuncha;
- leksik fon;
- milliy madaniyat (realiyalar);
- tematik material.

2. Ko'nikma va malakalar:

- nutq malakalari (talaffuz, intonatsiya, grafik, orfografik, leksik, grammatik).
- nutq ko'nikmalari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish).

A.A. Mirol'yubovning (14) fikricha, ta'lim mazmuni quyidagilardan tashkil topadi:

- 1) malaka va ko'nikmalar (og'zaki nutq, o'qish, yozuv);
- 2) til materiallari (leksik, grammatik va fonetik);
- 3) matnlar (ovoz va yozilgan nutq namunalari tarzida);
- 4) mavzular (og'zaki nutq va o'qish olib boriladigan);
- 5) o'rganilayotgan tilga oid, ammo ona tilida uchramaydigan til tushunchalari.

B. A. Lapidusning (11) fikricha, ta'lim mazmuni tarkibiy qismlari deganda faqat til materiallari bilan ish ko'ruvchi malaka va ko'nikmalarni tushunish lozim. Ular esa o'z navbatida ta'lim maqsadi bilan bog'liq:

1. Nutq ko'nikmalari.
2. Til materialining tanlangan minimumlari bilan ish ko'ruvchi malakalar, kommunikativ ahamiyat kasb etuvchi va nutq qoidalariga ega bo'lgan, o'rganilayotgan til haqidagi sistemali bilimlar, tilning paralingvistik, mamlakatshunoslik, verbal xususiyatlari.

Demak B. A. Lapidus yuqorida keltirgan ikki olimdan farqli o'laroq, ta'lim mazmuniga o'rganuvchilarning ona tiliga oid bo'lmagan xususiyatlar: matnlar, mavzularni kiritmagan.

T.V. Kuchmaning (10) fikricha esa, og'zaki nutqqa o'rgatuvchi ta'lim mazmuni deyilganda, o'quvchilar tahsil olayotgan o'quv yurti maqsadiga mos keluvchi kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yordam beradigan bilimlarni tushunish lozim. Uning tasnifiga ko'ra, og'zaki nutqni o'rgatishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni tarkibi uch qismga bo'linadi:

1. Til material:

— kommunikativ maqsadda namoyon bo'luvchi til vositalari;
— mamlakatshunoslikka oid materiallar (til realiyalari ko'rinishida).

2. Kommunikativ hodisalarning nutqda aks etishi uchun zarur bo'lgan muayyan tipdagi/janrlardagi matnlar.

3. Turli xildagi muloqot jarayonlarida kommunikativ hodisalarning realizatsiyasi malakalari va ko'nikmalari.

Yana bir guruh olimlar N. D. Galskova (6) ta'lim mazmuni tarkibiy qismlarini quyidagicha tasniflaydilar:

1. Kommunikativ faoliyat doirasidagi mavzular, situatsiyalar, programma va ularning kengaytmasi, kommunikativ va ijtimoiy roli, nutq materiallari (matnlar, nutq namunalari va hokazo).

2. Til materiallari (tashkil qilish va ular bilan ishlash).

3. Chet tilni bilish va muloqot vositasi sifatida amaliy o'zlashtirishni ta'minlovchi maxsus nutq malakalarining majmui;

4. O'rganilayotgan mamlakat realiyalari va milliy-madaniy xususiyatlari haqidagi bilimlar tizimi, nutqning etik shakllari va ulardan turli doiradagi muloqot jarayonlarida foydalanish.

5. Umumiy o'quv malakalari, chet tilni o'zlashtirish bo'yicha o'quvchilarning faoliyati madaniyatini ta'minlovchi, aqliy mehnatning rasional usullari.

O.I. Kucherenko o'z tadqiqot ishida o'qitish mazmuni quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topmog'i lozimligini ta'kidlaydi:

1) o'rganilayotgan til haqidagi bilimlar;

2) mamlakatshunoslikka oid bilimlar;

3) til materiali;

4) matn turlari;

5) muloqot va situatsiyalar doirasi;

6) chet tilda muloqot qilish malaka va ko'nikmalari;

7) umumiy o'quv malakalari;

8) diskurs turlari (9).

Metodik adabiyotlarda keltirilishicha, chet tillarni o'qitish mazmunini tanlash uchun uning quyidagi boshlang'ich talablarni bajarish lozim bo'ladi:

— amalga oshirilishi mumkin bo'lishi, zamonaviy o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga javob berish, ularni ona yurti va chet mamlakatlarning madaniy merosi bilan tanishtirish, autentik bo'lish, o'quvchilar ongida dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirish, ularni jamiyatga tayyorlashda ko'maklashish;


— o'quvchilarning shaxsiy tajribasiga, ularning his-tuyg'ulari va hissiyotlariga e'tibor qaratish, taqqoslashga o'rgatish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ko'maklashish; o'z nuqtayi nazarini ifoda etishga o'rgatish, umumiy aytganda, shaxsni har tomonlama rivojlantirish, o'z mamlakatining vatanparvari va dunyo fuqarosi sifatida tarbiyalashga ko'maklashish, boshqa mentalitet va madaniyatga nisbatan bag'rikenglikning namoyon bo'lishiga yordam berish;

— o'quvchilarga ularning ehtiyojlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan va individual yondashuvni amalga oshirish uchun real sharoit yaratish;

— o'quvchilarning bilim olishdagi subyektiv holatini rag'batlantirish, muloqot jarayonini kuzatish, mustaqil fikrlash va xulosalar berish, suhbatlarda qatnashishga o'rgatish, shuningdek, ularni mustaqil ravishda ma'lumot qidirishga yo'naltirish (shu jumladan Internet-resurslardan foydalanish);

— uzluksiz ravishda o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish (o'zini kuzatish, o'zini o'zi boshqarish, baholash), mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlanishiga ko'maklashish, shuningdek, o'quvchilarning o'z taqdirini o'zi belgilashi va o'zini o'zi anglashiga ko'maklashish (12).

Olimlarning o'qitish mazmuni va tarkibiy qismlarining tadqiqiga doir mulohazalarini tahlil qilgan va umumlashtirgan holda, texnika oliy o'quv yurti chet til o'qitish ta'limi maqsadidan kelib chiqib, ba'zi qismlarning o'rniga yangilarini qo'shish orqali quyidagi xulosaga keldik. Tadqiqot maqsadi bo'lgan leksik kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni quyidagi qismlarni tashkil qiladi:



1- rasm

Bularning har birini izohlaymiz:

Mutaxassislikka oid bilimlar.

Bu tur bilimlar har qanday mutaxassisning nafaqat ish, balki hayotiy faoliyatida ham juda muhim. Mutaxassislik bilimlari talabning bilim darajasini belgilab beruvchi eng birinchi omildir. Mazkur bilim va malakalar talabada o'qish vaqtida shakllantirilib, ish faoliyati davomida to'ldirib boriladi.

Til materiali.

Ma'lumki, har bir o'quv yurti chet til o'qitish tizimi bosh bo'g'ini til materialini tashkil etadi. Dastlab o'quv yurti maqsadiga ko'ra chet tilda leksik, grammatik, fonetik material tanlanib, so'ngra shular asosida bilim beriladi. Tanlangan minimum chet tilni o'zlashtirishda va talabalarda leksik kompetensiyani shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Bu haqda quyida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Kasbiy muloqot jarayonlari.

Mutaxassislarning kommunikativ maqsadi kasbiy muloqot bilan bog'liq. Talabalarda chet til bilimlarni shakllantirish bilan birgalikda o'zlashtirilgan materiallarni turli og'zaki va yozma nutq jarayonlarida ishlatish malakalari ham shakllantirilmog'i lozim.

Tadqiqot ishimizda texnika oliy o'quv yurti talabalarida shakllantirilishi lozim bo'lgan og'zaki nutq jarayonlarini quyidagicha belgilashni lozim topdik.

- kasbiy xarakterdagi dialog/suhbatlar;
- monolog turlari (doklad, axborot va hokazo).

Mamlakatshunoslikka oid bilimlar.

Tili o'rganilayotgan mamlakat haqidagi bilimlar chet tilni o'rgatishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Lekin ularning hammasini ham talabalarga berish samarali natija bermaydi. Ular ichidan aynan kasbiy muloqotni shakllantirishga yordam beruvchi ma'lumotlarni tanlab olinib o'rgatilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Turli kontentdagi matnlar.

Kontentni tanlashda yana o'quv yurti maqsadiga e'tibor qaratiladi. Masalan, texnika o'quv yurtlaridagi mavjud barcha mutaxassisliklar tarkibiga ko'ra bir necha yo'nalishlardan tashkil topgan. Mazkur yo'nalishlar ham o'z navbatida kichik sohalarga bo'linib ketadi. Jumladan, energetika mutaxassisligi misolida quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

Eee — elektrtexnika, elektrmexanika va elektrotexnologiyalar (tarmoqlar bo'yicha).

Ee — elektr energetikasi.

— tarmoqlar bo'yicha: sanoat korxonalari va shaharlarni;

— energiya ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash.

IE — issiqlik energetikasi.

Et — energiya tejamkorligi (tarmoqlar bo'yicha).

Ge — gidroenergetika.

AE — atom energetikasi.

Energetika mutaxassisligidagi mazkur yo'nalishlar o'zlariga xos kontent doirasiga ega bo'lib, bular bo'yicha talabalarga maxsus terminlarni o'rgatish lozim. Talabalarning o'z yo'nalishlariga oid kontent va ularga oid terminlar bilan tanish bo'lishlari ularni kelajakdagi ish faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun zamin bo'ladi.

Mutaxassislikka oid terminologiyani o'zlashtirish kasbiy faoliyatda terminlardan foydalanish qobiliyatini rivojlantirishni taqozo etadi. Terminologik bilimlar muayyan hajm va mazmundagi ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishga, shuningdek, mutaxassislikka oid tushunchalar va munosabatlarni aks ettiruvchi — o'rganilayotgan fan sohasining terminologik tizimiga asoslanadi. Boshqacha aytganda, bo'lajak mutaxassis bilimlarining bir qismi terminlarning ma'nolari, ularning birma'nolilik va izchillik tendensiyasi haqidagi bilimlar sifatida ifodalanishi mumkin.

Bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatiga oid terminologiyani kuchli egallashning obyektiv imkoniyatlari leksik materialning miqdori va sifatiga bog'liq. Odatda texnika oliy o'quv yurtidagi o'qishning birinchi va ikkinchi yillarida chet tilda umum foydalaniluvchi (общеупотребительное слово) leksikani o'zlashtirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Keyingi uchinchi va to'rtinchi yillardan boshlab esa, mutaxassislik fanining asosiy atamalarini o'rganishdan boshlaydilar. Bunda asosiy lug'at to'plamidan tashkil topgan terminologik minimum alohida ahamiyat kasb etadi. Terminologik minimum universitet talabalariga chet tilda og'zaki va yozma nutqda, xususan, mutaxassislik fanining mazmunini o'zlashtirish davrida o'z fikrlarini ifoda etish va boshqalarning fikrlarini tushunish imkoniyatini yaratuvchi terminologik lug'atning asosiy zaxirasini tashkil etadi.

Chet til o'qitish mazmunining birinchi tarkibiy qismi aniq til materialini: leksika, grammatika, fonetika, orfografiyani bilishdan iboratdir. O'quvchilarga bu bilimlarni berish uchun ular bilishlari zarur bo'lgan til ishoralarining hajmi va xususiyatlarini — til materialini aniq tasavvur etmoq darkor. Shuning uchun mazmunni aniqlashda metodikaning vazifalaridan biri bo'lgan til materialini tanlash kerak (6).

Chet tillarni o'rgatish metodikasi mazmunini tashkil etuvchi qator masalalar orasida leksikani tanlash muammosi oldingi o'rinlardan birini egallaydi. To'g'ri tuzilgan o'quv lug'ati o'qituvchi uchun zarur qo'llanma bo'ladi, chunki o'qituvchi bu lug'at bilan e'tiborni o'zlashtirilishi lozim bo'lgan qat'iy cheklangan leksika doirasiga qaratadi. Leksik minimum ilmiy asoslangan, izchil bog'langan darsliklar yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Leksik minimum tanlash har bir oliy o'quv yurti chet til o'qitish tizimi maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Shunday ekan nofilologik oliy o'quv yurtlarida tanlanadigan leksik birliklar chet til o'qitish maqsadi: o'zganing nutqini va sohaga oid matnni o'qib tushunish hamda o'z fikrini bayon qila olish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish kabilarni amalga oshirishni ko'zda tutishi kerak bo'ladi.

Bir qator tadqiqot ishlarini, dasturlarni tahlil qilib, shunga amin bo'ldikki, nofilologik oliy o'quv yurtlari uchun leksik minimum 2500-3000 so'zni tashkil qilishi lozim (17).

Bunda 1000 ta so'z — umumiste'moldagi leksika — aktiv va 2000 tasi professional terminlar — passiv leksikani tashkil etadi.

A.A. Mirolyubov, I.V. Raxmanov, V.S. Tsetlin (18) tahriri ostida nashr etilgan "O'rta maktabda chet tillar o'qitishning umumiy metodikasi" kitobida aktiv va passiv leksikaning mazmun-mohiyati quyidagicha keltirilgan, ya'ni har bir kishi o'zi tushunadigan, ammo odatda o'z nutqida qo'llamaydigan juda ko'p so'zlarni biladi. Bu so'zlar uning passiv so'z boyligi zapasini tashkil qiladi. U o'z fikrini ifoda etish uchun ancha cheklangan miqdordagi so'zlardan foydalanadi, bu so'zlar uning aktiv so'z boyligiga kiradi.

Passiv tarkibdagi so'zlar eshitishda yoki o'qishda esimizga tushadi. Ulardan ba'zi birlarining ma'nosini aniq yoki uncha aniq bo'lmagan holda eslab olamiz. Aktiv tarkibdagi so'zlardan bemalol foydalanamiz, ular hamma vaqt "qo'l ostimizda" bo'ladi va xohlagan vaqtda kommunikativ maqsadlarda ishlatilishi mumkin.

Asarda yana so'zlashuvchilarning passiv so'z boyligiga leksikaning periferik qatlamlari bo'lgan arxaizmlarni, ba'zi bir o'zlashtirilgan so'zlar va neologizmlarni, professional terminlar, dialektik so'zlar va shu kabilar kiritilsa, umumiy qo'llaniladigan, shu jumladan, kundalik ishlatiladigan leksikani aktiv so'z boyligi sifatida keltiriladi.

Nofilologik oliy o'quv yurtlari talabalari tomonidan chet tilni egallash sharoiti filologik oliy o'quv yurtlari talabalari sharoitidan tubdan farq qiladi. Bu farq aktiv va passiv so'z boyligining o'rtasidagi o'zaro munosabatda ko'zga tashlanadi. Texnika sohasi talabalarining so'z boyligi ona tilidagiga nisbatan bir muncha cheklangan bo'ladi, shuning uchun passiv minimumga eng ko'p qo'llaniladigan so'zlar kiradi. 1–2 kurslarda talabalarining leksik zapasini tashkil qiluvchi aktiv (umumiy qo'llaniladigan, kundalik ishlatiladigan) so'z boyligini oshirib, keyingi 3–4 kurslarda bu o'zakni to'ldirib turuvchi passiv zapasni (sohaga oid terminlar) boyitish nazarda tutiladi.

Demak, tanlanadigan leksikaning soni ma'lum bo'ldi, endigi navbat uni qaysi tamoyilga asosan tanlashni hal qilishdir. Leksik minimum tanlashning mohiyati shundan iboratki, ko'zga ko'rinmaydigan juda ko'p chet tili so'zlari va frazeologik so'z birikmalaridan o'qitishda qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun birinchi navbatda o'zlashtirilishi zarur bo'lganlarinigina tanlab olinadi (18).

Til o'qitish metodikasida bir qator tanlash prinsiplari qabul qilingan. Ular quyidagilar:

- 1) qo'llanish darajasiga ko'ra;
- 2) mavzu bo'yicha;
- 3) bog'lana olishlik xususiyatiga ko'ra;
- 4) qo'shimchalar orqali so'z yasay olishlik;
- 5) gap tuzishda faol ishtirok etish;
- 6) ko'p ma'noga ega bo'lishligiga ko'ra;
- 7) stilistik chegaralanmaslik;
- 8) namunalilik;
- 9) sinonim so'zlardan bittasini olishlik;

10) pedagogik-professional yo'nalishda bo'lishlik tamoyillari asosida tanlanadi (8).

N. D. Galskova va N. I. Gez barcha tamoyillarni o'zaro aloqador uch katta guruhga ajratadi: statistik, lingvistik va metodik.

Birinchi guruhga statistik tamoyillarni kiritadilar. Ular so'zning ishlatilish chastotasini o'z ichiga oladi (6).

Ikkinchi guruhga 1948 yilda L. V. Tsherba (19) rahbarligida ishlab chiqilgan lingvistik tamoyillar kiritiladi.

Ular asosiy va qo'shimcha tamoyillarga bo'linadi.

Asosiy tamoyillarga quyidagilar kiradi:

1) semantik namunalilik tamoyili, buning asosida eng muhim tushunchalarni aks ettiradigan, maxsus ishlab chiqilgan mavzuga mos keladigan so'zlar tanlanadi; 2) bog'lana olishlik tamoyili, unga ko'ra eng ko'p kombinatsiyalar hosil qila oladigan leksik birliklar tanlanadi; 3) qo'shimchalar orqali so'z yasay olishlik tamoyili, bunda yangi so'zlarning shakllanishida faol ishtirok etuvchi so'zlar tanlanadi.


Qo'shimcha tamoyillarga quyidagilar kiradi:

1) stilistik chegaralanmaslik, unga ko'ra adabiy tilning ham kitobiy yozma uslubida, ham og'zaki nutq uslubida ishlatiluvchi so'zlar kiritiladi; 2) ko'p ma'noga ega bo'lishligiga ko'ra tamoyili; 3) gap tuzishda faol ishtirok etish tamoyili;

Uchinchi, metodik tamoyillar guruhi bilim yurtining o'quv maqsadlari, standartlari va o'quv dasturlariga qaratilgan bo'lib, bunda so'zlar muloqot vaziyatlariga va mavzusiga muvofiqligini inobatga olgan holda tanlanadi (6).

Yuqorida keltirilgan psixologik, pedagogik, psixolingvistik va metodikaga oid adabiyotlarni (I. Ya. Yoqubov (8), S. N. Beluxina (2), O. A. Bibin (3), S. F. Bulicheva (4), B. N. Golovin (7), V. Mekki (16), A. N. Shukin (20) va boshq.) tahlil qilish asosida "energetika"

mutaxassisligi uchun leksik minimum quyidagi tamoyillarga ko'ra tanlandi:



2-rasm

Mazkur tamoyillarning mazmunini quyida alohida ko'rib chiqamiz.

O'qitishning maqsad va vazifalariga muvofiqlik tamoyili. Bu tamoyil muayyan terminologik birliklarni mutaxassislik fanini o'rganish jarayonida tanlanib, lug'at minimumga kiritilishida o'z ifodasini topadi. Bunda tadqiqotimizda ilgari surilgan kontent, ya'ni mutaxassislikka oid ma'lumotni o'zida mujassamlashtirgan matnlar asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Energetika sohasi bir necha yo'nalishlarni o'z ichiga oladi, jumladan: elektr energetikasi (ee); elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyasi (eee); gidroenergetika (Ge), issiqlik energetikasi (IE) hamda atom elektr energetikasi (AE). Lug'at minimumda mazkur yo'nalishlar kontentiga oid terminlar tanlab olinib, alohida ajratilib ko'rsatilgan. Bundan ko'zlangan maqsad talabalarni o'z yo'nalishlari kontentiga oid terminlarini aniq farqlay olishlari, kontentga asoslangan o'quv ma'lumotlarini o'qishi va tushunishi, ma'ruza materiallarini yoza olishi, o'qituvchilar va hamkasblari bilan muloqot qila olishlari nazarda tutilgan. Mazkur terminlar har bir talabaning kelgusi professional sohalarda foydalanishlarida konseptual va terminologik apparatni shakllantirish uchun muhim va zarurdir.

Birinchii kursdan boshlab talabalar bo'lajak mutaxassisligi bo'yicha terminologik lug'at fondini to'plash ustida ishlaydilar. Terminologik tayyorgarlikda energetika sohasi uchun umumiy bo'lgan terminlar, masalan, avtomatik, avtotransformator, generator, izolyator, issiqlik, kabel, tok, energiya, energetika, atom kabi umumiy terminlarni o'zlashtirish bilan amalga oshiriladi. Bu turdagi terminlarning o'zlashtirilishi energetika mutaxassisliklari talabalari uchun mo'ljallangan mutaxassislik fani o'quv dasturi talablarida ham keltiriladi.

Qo'llanish darajasiga ko'ra tamoyili. Bunda terminning mutaxassislikka oid manbalar, jumladan, adabiyotlar, gazeta va jurnallardagi matnlarda foydalanish chastotasi, ya'ni qo'llanish darajasiga ko'ra tanlanadi. Terminlardan foydalanishning miqdoriy ko'rsatkichi sifatida har bir sahifada 3 (pastki chegara)dan 10 gacha (yuqori chegara) ishlatilish soni bilan chegaralar qabul qilindi. Chastotasi ko'rsatilgan ushbu chegaralar bilan belgilanadigan terminlar asosiy termin sifatida tanlab olindi. Ular energetika mutaxassisligi fanlarining asosiy tushunchalarini tashkil qiladi. Bularga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: texnika, texnologiya, aloqa, bosim, quvvat, kanal, kollektor, kondensator va boshqalar shular jumlasidandir. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu terminlarni lug'at minimum tarkibiga kiritishimizning asosiy sababi ular og'zaki va yozma nutqda tez-tez foydalaniluvchi eng zarur terminlar hisoblanadi.

Qo'shimchalar orqali so'z yasay olishlik tamoyili. Mazkur tamoyilga ko'ra, muayyan termindan qo'shimchalar yordamida eng ko'p boshqa leksik birliklarni tuzish mumkin bo'lgan xususiyatli terminlar tanlab olindi. Masalan, "kondensat" terminining yangi so'z hosil qilish qiymati shundaki, u quyidagi terminlarni shakllantiradi: kondensator, kondensatsiya, kondensasion, kondensatsiyalanish va boshqalar shular jumlasidandir.

Bog'lana olishlik xususiyatiga ko'ra tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra energetika sohasi uchun eng ko'p terminlarni shakllantirishga imkon beradigan terminlarni tanlab olish ko'zda tutilgan. Masalan, ot+ot, harakat nomi + ot (transformatsiya koeffitsenti, sovutish koeffitsenti, susaytirish koeffitsenti, tarqatish koeffitsenti va h.k.), sifat+ot (kritik tezlik, kritik harorat, kritik holat va h.k.).

Terminning leksik bog'lanuvchanlik xususiyati aksariyat hollarda uning semantikasining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Terminlarning semantik xususiyatlarini o'zlashtirish talabalarni o'rganilayotgan tilda ushbu termin qatnashgan so'z birikmalari ro'yxatini yodlashdan xalos qiladi. O'zlari mustaqil ibora va jumalarni tuzishda u yoki bu terminni ishlatishi yoki boshqa leksik birliklar bilan to'g'ri birlashtirishi mumkin.

Mavzu bo'yicha tamoyili. Mazkur tamoyil alohida bo'limlar yoki mavzular bo'yicha terminlarni tanlashni ta'minlaydi. U asosan energetika sohasi mutaxassislik fanlarini o'rganish maqsadlariga qaratilgan. Ushbu tamoyilga muvofiq, terminlarning o'quv fanlari bilan belgilanadigan mavzularga tegishli ekanligini qayd etish muhim. Shunday qilib, energetika sohasi mutaxassislik fanlarining terminologik minimumida quyidagi tematik bo'limlar mavjud: nazariy elektrotexnika, elektr mashinalari, elektronika, sanoat elektronikasi, stantsiya va podstantsiyalarning elektr qismi, elektr tarmoqlari va tizimlari, releli himoya, elektr energetika tizimlarining avtomatikasi, yuqori kuchlanish texnikasi, raqamli energetika, Energomenejment, elektr texnologik qurilmalar, shahar elektr ta'minoti, issiqlik texnikasining nazariy asoslari, issiqlik va massa almashinuv jarayonlari, IES yoqilg'i yoqish va suv tayyorlash texnologiyasi, Yuqori xaroratli jarayonlar va qurilmalar, termodinamika va issiqlik texnikasi, Gidrogazodinamika, issiqlik ta'minoti va issiqlik tizimlari, Qozon qurilmalari, bug' va gaz qurilmalari, Quyosh energetikasi, shamol energetikasi, Quyosh issiqlik qurilmalari va tizimlari, biomassa energiyasi va ular asosidagi energetik qurilmalar, Quyosh elementlari, fotoelektrik batareyalar va ularning butlovchi qurilmalarini tayyorlash texnologiyalari, atom elektrostantsiyalari va

boshqalar shular jumlasidandir. Lugʻat minimumda mazkur fanlarga doir va ularda oʻqitiladigan terminlar tanlab olingan.

Semantik namunalilik tamoyili. Bunda tanlangan terminlar talaba tegishli fan sohasini oʻrganish jarayonida duch keladigan mavzu boʻyicha eng muhim tushunchalarni ogʻzaki va yozma nutqda ifodalay olishi kerakligidan iborat. Ushbu tamoyil talabiga koʻra, terminlar ichidan eng zarur boʻlganlari tanlab olinadi.

Respublikamizda energetika sohasi boʻyicha mutaxassis tayyorlashga ixtisoslashgan 10 dan ortiq nofilologik oliy oʻquv yurtlari mavjud. Mazkur oliy oʻquv yurtlarining ingliz tili oʻqitish tizimi tahlil qilinganida, afsuski, ularning hech birida “xorijiy tillar fanlaridan namunaviy dastur”da belgilangan leksik minimum yigʻilmagan va tasnif etilmaganiga amin boʻldik. Shuning uchun tadqiqotimiz doirasida energetika sohasining boʻlajak mutaxassislari va keng ommaga moʻljallangan 3 tilli (Oʻzbekcha-inglizcha-ruscha) terminlar lugʻatini yaratdik. Mazkur lugʻat tarkibiga dasturda koʻrsatilgan energetikaga oid 2000dan ziyod termin (soʻz va soʻz birikmalari) kiritilgan boʻlib, ular energetika sohasiga oid xorijda va mamlakatimizda chop etilgan ilmiy adabiyotlardan, manbalardan olingan parchalardan, gazeta va jurnallardan oʻqitishning maqsad va vazifalariga muvofiq, yuqorida qayd etilgan qoʻllanish darajasiga koʻra, qoʻshimchalar orqali soʻz yasay olishlik va bogʻlana olishlik xususiyatiga koʻra, mavzu boʻyicha va semantik namunalilik xususiyatlariga koʻra tanlab olingan. Tanlab olingan terminlar texnika sohasiga oid lugʻatlar yordamida ingliz va rus tillariga tarjima qilinib, uchala tildagi muqobillari keltirilgan.

Bundan tashqari, taqdim etilgan terminlar energetika sohasining yoʻnalishlari hisoblangan elektr energetikasi (ee); elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyasi (eee); gidroenergetika (Ge) hamda issiqlik energetikasi (IE), atom energetikasi (AE) boʻyicha alohida ajratilib chiqilgan. Bu esa talabalarga oʻz yoʻnalishlari kontentiga xos terminlarni mustaqil ravishda oʻrganish imkoniyatini beradi. Leksik minimum quyida ilova qilingan.

Avtomatik (ee)	Automatic [ɔ:təˈmætɪk] (adv)	Автоматический
~ qayta ulash (AQU)	Automatic repeated inclusion (ARI)	Автоматическое повторное включение (АПВ)
~ qayta ulash qurilmasi (AQUQ)	Device of automatic repeated inclusion	Устройство автоматического повторного включения (УАПВ)
~ rostlash	Automatic regulation (control)	Автоматическое регулирование
~ sinxronlash	Automatic synchronisation	Автоматическая синхронизация
~ uzgich	Automatic switch	Автоматический выключатель
~ oʻchirish	Automatic switching~off	Автоматическое отключение

Kuchlanish va reaktiv quvvatni ~ rostlash	Automatic control of voltage and jet capacity	Автоматическое регулирование напряжения и реактивной мощности
Kuchlanishni ~ rostlash	Voltage automatic control	Автоматическое регулирование напряжения
Muvaffaqiyatli ~ qayta ulash (AQU)	Successful reclosure	Успешное АПВ
Muvaffaqiyatsiz ~ qayta ulash	Unsuccessful reclosure	Неуспешное АПВ
Rezerv manbaini ~ ulash (RAU)	Automatic inclusion of a reserve food	Автоматическое включение резервного питания (ABP)
Rezerv manbaini ~ ulash qurilmasi (RAUQ)	Device of automatic inclusion of a reserve	Устройство автоматического включения резерва (УABP)

Mazkur qo'llanma texnika oliy o'quv yurtlarida xorijiy tillarni o'qitishda talabalarda sohasiy terminologik malakalarini shakllantirishda samarali yordam beradi (1).

Xulosa. Yuqoridagi nazariy fikrlarga tayanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, har qanday zamonaviy dastur kommunikativ kompetensiya va uning komponentlarini shakllantirishga asoslanmog'i lozim.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish chet tilni muayyan mutaxassislik doirasida til egasi bilan muloqotga kirisha olishlik uchun zarur bilim, malaka va ko'nikmalardir. Kommunikativ kompetensiya nofilologik oliy o'quv yurtlari chet til o'qitish maqsadi sifatida ko'plab komponentlardan tashkil topadi. Olimlar mazkur komponentlar haqida turli tasnifni tavsiya etganlar. Ulardan lingvistik, diskursiv, sotsiolingvistik, sotsiomadaniy, strategik va referentsial kompetensiyalar asosiylari bo'lib, birlari bilan chambarchas bog'liq va ularning hammasi kommunikativ kompetensiyani to'liq shakllanishida birdik ahamiyat kasb etadi.

Leksik minimum talabalarda leksik kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan chet til o'qitish mazmuni komponentlaridan biri bo'lib, uning mohiyatiga ko'ra, ko'zga ko'rinmaydigan juda ko'p chet til so'zlari va frazeologik so'z birikmalaridan o'qitishda qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun birinchi navbatda o'zlashtirilishi zarur bo'lganlarigina tanlab olinadi. Bu esa talaba va o'qituvchining til materiali ustida ish olib borish unumdorligini oshirishda samarali yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бакирова Х. Энергетика терминларининг қисқача ўзбекча-инглизча-русча луғати. — Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2012. — 80 б.
2. Белухина С.Н. Обучение русской профессиональной лексике на основе учебного терминологического словаря рецептивно-продуктивного типа: Автореф. дис. ... канд. пед. наук/ 13.00.02. —

- М., 1991. — 24 с.
3. Бибин О.А. Введение лексики как первоначальный этап формирования навыков словоупотребления: Автореф. дис. ... канд. пед. наук/ 13.00.02. — Л., 1974. — 24 с.
4. Булычева С.Ф. Отбор терминологического словаря-минимума и расчет его параметров/ Сб. Актуальные вопросы обучения основным видам речевой деятельности. — Ч.1. — М.: МГПИИЯ им. М. Тореца. — 76 с.
5. Гальскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. / Н.Д. Гальскова, Н.И. Гез. — М.: Академия, 2009. — 339 с.
6. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. — М.: АCADEMA, 2004. — 295 с.
7. Головин Б.Н. О некоторых доказательствах терминированности словосочетаний // Лексика, терминология, стили. Горький: Изд-во Горьк. ун-та, 1973. Вып. 2. — С. 57-65.
8. Ёкубов И. Амалий инглиз тили методикаси. — Т., 2009. — 285б.
9. Кучеренко О.И. Формирование дискурсивной компетенции в сфере устного общения (Французский язык, неязыковой вуз) Дис. ... канд. пед. наук. — Москва, 2000. — 184 с.
10. Кучма Т.В. Обучение говорению в неязыковом вузе на основе использования мотивов профессионального общения: Автореф. дис.. канд. пед. наук. — М., 1991. — 21 с.
11. Лапидус Б.А. Проблемы содержания обучения языку в языковом вузе: Учеб. пособие / Б.А. Лапидус. — М.: Высш. шк., 1986. — 145 с.
12. Методика обучения иностранным языкам: традиции и современность / Под ред. А. А. Миролюбова. — Обнинск: Титул, 2010. — 464 с
13. Миньяр-Белоручев Р.К. Методика обучения французскому языку. — М.: Просвещение, 2012. — 224 с.
14. Миролюбов А.А. Ўрта мактабда чет тиллар ўқитишнинг умумий методикаси А.А. Миролюбов И.В. Рахманов, В.С. Цетлин таҳрири остида. — Т.: Ўқитувчи 1974. 272б.
15. Миролюбова А.А. Методика обучения иностранным языкам: традиции и современность / Под ред. А. А. Миролюбова. — Обнинск: Титул, 2010.— 464 с.
16. Мэки В. Отбор// Проблемы отбора учебного материала. — М.: МГУ, 1971. — С. 27 — 70.
17. Тарнопольский О.Б., Интенсификация обучения лексике английского языка в неязыковом вузе: Автореф. дисс. ...канд.пед.наук, — М., 1979. — 22 с.
18. Ўрта мактабда чет тиллар ўқитишнинг умумий методикаси. //А.А. Миролюбов ва бошқ. таҳрири остида. — Т.: Ўқитувчи, 1974. — 34 б.
19. Щерба Л.В., Преподавание иностранных языков в средней школе. Общие вопросы методики /Под ред. И.В. Рахманова. Изд. 2-е. — М.: Высшая школа, 1974. — 112 с.

References

1. Bakirova Kh. *Energetika terminlarining qisqacha uzbekcha-inglizcha-ruscha lug'ati* (Short Uzbek-English-Russian dictionary of energy terms), Tashkent: Tafakkur nashriyoti, 2012, 80 p.
2. Belukhina S.N. *Obuchenie russkoi professional'noi leksike na osnove uchebnogo terminologicheskogo slovara retseptivno-produktivnogo*

- tipa* (Teaching Russian professional vocabulary based on educational terminological dictionary of receptive-productive type), extended abstract of candidate's thesis, Moscow, 1991, 24 p.
3. Bibin O.A. *Vvedenie leksiki kak pervonachal'nyi etap formirovaniya navykov slovoupotrebleniya* (The introduction of vocabulary as the initial stage in the formation of word usage skills), extended abstract of candidate's thesis, 13.00.02, Leningrad, 1974, 24 p.
4. Bulychева S.F. Sb. *Aktual'nye voprosy obucheniya osnovnym vidam rechevoi deyatel'nosti* (Topical issues of teaching the main types of speech activity), Part 1, Moscow: MGPIYa im. M. Toreza, 76 p.
5. Gal'skova N.D. *Teoriya obucheniya inostrannym yazykam. Lingvodidaktika i metodika* (Theory of teaching foreign languages. Linguodidactics and methodology), Moscow: Akademiya, 2009, 339 p.
6. Gal'skova N.D., Gez N.I. *Teoriya obucheniya inostrannym yazykam. Lingvodidaktika i metodika* (Theory of teaching foreign languages. Linguodidactics and methodology), Moscow: Academia, 2004, 295 p.
7. Golovin B.N. *Leksika, terminologiya, stili* (Lexis, terminology, styles), Gor'kii, 1973, issue 2, pp. 57–65.
8. Ekubov I. *Amalii ingliz tili metodikasi* (Applied English language methodology), Tashkent, 2009, 285 p.
9. Kucherenko O.I. *Formirovanie diskursivnoi kompetentsii v sfere ustnogo obshcheniya* (Formation of discursive competence in the field of oral communication), candidate's thesis, Moscow, 2000, 184 p.
10. Kuchma T.V. *Obuchenie govoreniyu v neyazykovom vuze na osnove ispol'zovaniya motivov professional'nogo obshcheniya* (Teaching speaking in a non-linguistic university based on the use of motives of professional communication), extended abstract of candidate's thesis, Moscow, 1991, 21 p.
11. Lapidus B.A. *Problemy sodержaniya obucheniya yazyku v yazykovom vuze* (Problems of the content of language teaching in a language university), Moscow: Vyssh. shk., 1986, 145 p.
12. *Metodika obucheniya inostrannym yazykam: traditsii i sovremennost'* (Methods of teaching foreign languages: traditions and modernity), Obninsk: Titul, 2010, 464 p.
13. Min'yar-Beloruhev R.K. *Metodika obucheniya frantsuzskomu yazyku* (Methods of teaching French), Moscow: Prosveshchenie, 2012, 224 p.
14. Mirolyubov A.A. *Urta maktabda chet tillar ukitishning umumii metodikasi* (General methodology of teaching foreign languages in secondary school), Tashkent: Ukituvchi 1974, 272 p.
15. Mirolyubova A.A. *Metodika obucheniya inostrannym yazykam: traditsii i sovremennost'* (Methods of teaching foreign languages: traditions and modernity), Obninsk: Titul, 2010, 464 p.
16. Mekki V. *Problemy otbora uchebnogo materiala* (Problems of selection of educational material), Moscow: MGU, 1971, pp. 27–70.
17. Tarnopol'skii O.B., *Intensifikatsiya obucheniya leksike angliiskogo yazyka v neyazykovom vuze* (Intensification of teaching English vocabulary in a non-linguistic university), extended abstract of candidate's thesis, Moscow, 1979, 22 p.
18. *Urta maktabda chet tillar y'kitishning umumii metodikasi* (General methodology of teaching foreign languages in secondary school), Tashkent: Ukituvchi, 1974, 34 p.
19. Shcherba L.V., *Prepodavanie inostrannykh yazykov v srednei shkole. Obshchie voprosy metodiki* (Teaching foreign languages in high school.

General issues of methodology), Ed. I.V. Rakhmanov, Moscow: Vysshaya shkola, 1974, 112 p.
20. Shchukin A.N. *Lingvodidakticheskii entsiklopedicheskii slovar': bolee 2000 edinits* (Linguodidactic encyclopedic dictionary: more than 2000 items), Moscow: Astrel': AST: Khranitel', 2007, 746 p.